

**Xalq ta'lifi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni oylik ustamalar to'lash orqali moddiy rag'batlantirish maqsadida saralash test sinovini o'tkazish uchun boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha test topshiriqlari spetsifikatsiyasi**

Mazkur spetsifikatsiyaga amaldagi o'quv me'yoriy hujjatlarga muvofiq qo'shimcha, o'zgartirish va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

**1. Test topshiriqlarining qo'llanishi**

Spetsifikatsiya Xalq ta'lifi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni boshlang'ich ta'lim yo'nalishidan oylik ustamalar to'lash orqali moddiy rag'batlantirish maqsadida saralash test sinovlarini o'tkazish uchun o'qituvchilarning bilim darajasini aniqlab berishga mo'ljallangan.

**2. Test sinovi topshiriqlarining mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar:**

– Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlan darsliklar, o'quv qo'llanmalarini va oliy ta'lim muassasalarini tomonidan tasdiqlangan malaka talablari, o'quv dasturi;

– Xalq ta'lifi vazirligi tomonidan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'lim uchun boshlang'ich ta'lim yo'nalishi fanidan takomillashtirilgan o'quv dasturi, darsliklar va o'quv qo'llanmalar;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'lifi vaziri jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'ridsida" 2022-yil 2-avgustdaggi VM-425-son qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori.

**3. Test sinovi topshiriqlarining mazmuni va tuzilishi.**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi fanidan test topshiriqlari tegishli vazirlik va idoralar tomonidan tasdiqlangan darsliklar, o'quv qo'llanmalarini va fan dasturlari asosida ishlab chiqiladi.

Test topshiriqlari Xalq ta'lifi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni oylik ustamalar to'lash orqali moddiy rag'batlantirish maqsadida saralash test sinovini o'tkazish uchun boshlang'ich ta'lim yo'nalishi fani bo'yicha tayyorgarlik darajasini aniqlab berishga yo'naltiriladi. Ular o'qituvchilarda boshlang'ich ta'lim yo'nalishi fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirganlik darajasini sinovdan o'tkazadi.

**4. Test topshiriqlari tuzilishi.**

Test topshiriqlari quyidagi test turlaridan iborat bo'lishi mumkin:

Y1 – to'rtta javob variantli, bitta to'g'ri javobli yopiq test;

Y2 – to‘rttadan ko‘p javob variantli, bir nechta to‘g‘ri javobli yopiq test;

Y3 – to‘rtta savolga to‘rtta to‘g‘ri javobni mos qo‘yadigan yopiq test;

Y4 – har biri “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” deb belgilanadigan to‘rtta savoldan iborat yopiq test.

Test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimlanishiga asoslanib tuziladi. Test varianti, asosan, (Y1) to‘rtta javob variantli, bitta to‘g‘ri javobli yopiq test topshiriqlaridan iborat bo‘ladi.

Shuningdek, test topshiriqlari varianti turli (oson, o‘rta, yuqori) qiyinlik darajasida tuzilgan test topshiriqlaridan tashkil topadi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi fanidan barcha test topshiriqlari variantlarida qiyinlik darajasi bir xilda saqlanib, quyidagicha taqsimlanadi:

<b>Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi</b>	<b>Topshiriqlar soni</b>	<b>Topshiriqlar ulushi (%)</b>
Oson	10	25
O‘rta	20	50
Yuqori	10	25
<b>Jami:</b>	<b>40</b>	<b>100</b>

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi fanidan shakllantiriladigan variant, 10 ta oson, 20 ta o‘rta va 10 ta yuqori qiyinlik darajasidagi jami 40 ta test topshirig‘idan iborat bo‘ladi.

#### **Test topshiriqlari variantlarining ekvivalentligi quyidagicha ta’milanadi:**

- har bir variant maxsus kompyuter dasturi asosida test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimlanishiga va ushbu spetsifikatsiyaga muvofiq shakllantiriladi.

- taqdim etiladigan barcha variantlardagi test topshiriqlari qiyinlik darajasining bir xilligi ta’milanadi;

- turli (oson, o‘rta, yuqori) qiyinlik darajasidagi barcha test topshiriqlarini tuzishda darsliklardagi qo‘srimcha ma’lumotlar, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi faniga oid tayanch iboralar, atamalar, topshiriqlar, lug‘atlar va rasmlardagi ma’lumotlardan foydalaniлади.

#### **5. Test topshiriqlarining mazmun, ko‘nikma va malakalar bo‘yicha taqsimlanishi.**

Test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimotida aks etgan bo‘limlarga oid mazmunni hamda 25 ta paragraf, 32 ta punktni o‘z ichiga oladi.

**Test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimoti:**

**Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi**

Paragraf	Punkt	Mavzu	Qiyinlik darajasi		
			oson	o‘rta	yuqori
<b>Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining umumiylarasi</b>					
1	1	Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi fanining predmeti va vazifalari. Ona tili o‘qitish tamoyillari, ona tili o‘qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Boshlang‘ich sinf ona tili darslariga qo‘yiladigan talablar. Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarining turlari. Til ta’limida innovatsion-pedagogik texnologiyalar. Ona tili darslarida qo‘llanadigan metodlar. Ona tilidan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi mazmuni. Nutqiy kompetensiyalar va lingvistik kompetensiyalarga DTSda qo‘yiladigan talablar. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlar.			
<b>Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. Savod o‘rgatish metodikasi</b>					
2	1	Savod o‘rgatish metodikasining maqsad va vazifalari. Savod o‘rgatishda qo‘llanadigan metodlar. Savod o‘rgatish jarayoni bosqichlari. Savod o‘rgatishda mashq turlari. Savod o‘rgatish davrida boshlang‘ich yozuvga o‘rgatish. O‘qish va yozuv darslariga qo‘yiladigan talablar. Oz komplektli maktablarda savod o‘rgatish darslarining xususiyatlari.			
<b>Kitobxonlik faoliyatini shakllantirish metodikasi</b>					
3	1	O‘qish malakasi haqida tushuncha. Boshlang‘ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish. Ertakni o‘qish metodikasi. Hikoya janridagi asarni o‘qitish metodikasi. Masal janridagi asarlarni o‘qitish metodikasi. Ilmiy-ommabop asarlarni o‘qitish metodikasi. She‘r janridagi asarni o‘qitish metodikasi. Doston, topishmoq, tez aytish, maqol janridagi asarlarni o‘qitish metodikasi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda mustaqil kitobxonlikni shakllantirish. Boshlang‘ich maktabda kitobxon o‘quvchilarni shakillantirish bosqichlari.			
<b>Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakillantirish metodikasi</b>					
4	1	Fonetika va grafika asoslarini o‘rgatish metodikasi. Boshlang‘ich sinflarda so‘zning morfemik tarkibini o‘rganish metodikasi. So‘z turkumlarini o‘qitish metodikasi. Boshlang‘ich sinflarda sintaksis va punktuatsiya elementlari us-			

		tida ishlash metodikasi. So‘z birikmasi va gap ustida ish-lash. Boshlang‘ich sinflarda imloga o‘rgatish. Ona tilidan bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish.		
<b>Nutq o‘stirish metodikasi</b>				
5	1	Kichik yoshdagi o‘quvchilar nutqini o‘stirish yo‘llari va vazifalari. Lug‘at ustida ishlash metodikasi. Bog‘lanishli nutq va uni o‘stirish vazifalari. Og‘zaki qayta hikoya qilish va yozma bayon. Og‘zaki hikoya va yozma insho. Nutqiy xatolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.		
<b>Boshlang‘ich sinfda matematika o‘qitish metodikasi fan sifatida</b>				
6	1	Boshlang‘ich sinf matematika kursining mazmuni. Bos-hlang‘ich sinfda matematika o‘qitish metodlari. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishni tashkil qilishda interfaol metodlardan foydalanish. Boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. Boshlang‘ich sinflarda milliy oquv dasturi. ‘Kompetentsiyalar. Matematikaga ixtisoslashtirilgan sinflarda o‘qitish.		
<b>Matematikaga ixtisoslashtirilgan boshlang‘ich sinflarda o‘qitish</b>				
7	1	Boshlang‘ich sinflarda nomanfiy butun sonlarni nomerlashga o‘rgatish metodikasining umumiyl masalalari. 10 ichida, 100 ichida, 1000 ichida, ko‘p xonali sonlar ustida nomanfiy butun sonlarni nomerlashga o‘rgatish metodikasi.		
<b>Boshlang‘ich sinflarda arifmetik amallarni o‘rgatish metodikasi</b>				
8	1	Nomanfiy butun sonlar ustida arifmetik amallarni o‘rgatish metodikasining umumiyl masalalari. O‘nlik konsentrinda arifmetik amallarni o‘rgatish metodikasi, 100 ichida, 1000 ichida, Ko‘p xonali nomanfiy butun sonlar ustida arifmetik amallarni o‘rgatish metodikasi. Ko‘paytirish va bo‘lish metodikasi. Ko‘paytirish va bo‘lish amali ma’nosini ochib berish hamda uni bosqichlab konsentrarda bajarilishini o‘rgatish.		
<b>Algebra elementlarini o‘qitish metodikasi</b>				
9	1	Boshlang‘ich sinflarda algebra elementlarini o‘rgatish metodikasining umumiyl masalalari. Son va ifoda tushunchasi. Sonli va harfiy ifodalar. Harfli ifodalar. $a+b$ , $a-b$ , $a^b$ , $a:b$ kabi ifodalar. Harfli ifodalarning qiymatini berilgan sonlar orqali topish. O‘zgaruvchi qatnashgan ifoda. Tenglik va tengsizlik, tenglama va uni yechishga o‘rgatish. Tenglama. Tenglamalarni yechish metodikasi.		
<b>Boshlang‘ich sinflarda to‘plam va kombinatorika elementlari</b>				
10	1	To‘plamlar nazariyasi, mantiq va kombinatorika elementla-ri ustida ishlash metodikasi. To‘plam tushunchasi. To‘plamning qismini topish. To‘plamni qismlarga ajratish. Venn diagrammasi. To‘plamlar kesishmasi haqida		

		tushuncha. Venn diagrammasi yordamida bajariladigan topshiriqlar, to‘plamlar orasidagi bog‘lanishlarni ko‘rsatish.		
<b>Ulush va kasr tushunchasi</b>				
11	1	Ulush va kasr tushunchasi bilan tanishtirish metodikasi. Kasrlarni taqqoslash. Ulush. Butunning ulushini topish. Ulushga ko‘ra butunni topish. Kasrlar ustida arifmetik amallar. O‘nli kasrlar.		
<b>Boshlang‘ich sinflarda geometriya elementlarini o‘rgatish metodikasi</b>				
12	1	Boshlang‘ich sinflarda geometriya elementlarini o‘rgatish metodikasining umumiy masalalari. Boshlang‘ich sinflarda geometrik shakllarni (nuqta, kesma, nur, ko‘pburchak, burchak) o‘rganish usullari. Boshlang‘ich sinflarda perimetr va yuza tushunchalarini o‘rgatish metodikasi. Burchak turlari, burchaklarni o‘lchash. Yoyiq burchak. Burchak gradusi. 30, 45, 60, 90 gradusli burchaklarni transportir yordamida o‘lchash. Parallel va perpendikulyar chiziqlar. Koordinata burchagi, nuqta koordinatalari. Simmetriya.		
<b>Arifmetik masalalar yechishga o‘rgatish metodikasi</b>				
13	1	Arifmetik masalalar yechishga o‘rgatish metodikasi. Masala va uning tarkibi. Murakkab masalalar ustida ishslash metodikasi. Miqdorlar o‘rtasidagi munosabatlarga oid masalalarni yechishni o‘rganish metodikasi. Harakatga doir masalalarni yechish metodikasi. Vaqt, masofa, tezlik, o‘rtacha (Turg‘un suvdagi tezlik) tezlikni topishga doir masalalalar yechish.		
<b>Xalqaro baholash dasturlari</b>				
14	1	TIMSS, PISA va boshqalar.		
<b>Quyosh tizimi</b>				
15	1	Koinot. Gallaktika, uning turlari va tuzilishi. Yulduzlar tizimi. Quyosh tizimi va sayyoralar. Merkuriy. Venera. Mars. Yupiter. Neptun. Saturn. Uran. Ichki va tashki sayyoralarning farki. Quyosh tizimidagi sayyoralarining o‘rganilganlik darajasi. Sayyoralar va Quyosh orasidagi masofa. Yulduzlar, kometa, asteroid va meteoritlar.		
<b>Yerning shakli va harakati</b>				
16	1	Yer, yerning shakli. Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi natijasida kun va tun almashishi va Quyosh atrofida aylanishi natijasida yil fasllarining almashishi. Ekvator. Meridian va parallel chiziqlari. Globus. Harita. Oy va uning fazalari.		
<b>Yerning geografik qobiqlari</b>				
17	1	Litosfera. Materiklar. Qit’alar. Ditosferaning cho‘kindi qatlami. Mantiya. Yadro. Tog‘lar. To‘qaylar. O‘rmonlar. Cho‘llar. Zilzilalar. Seysmik mintaqalar. Vulqonlar. Tabiat mintaqalari. Tuproq. Tuproqning tuzilishi, unumdorligi va		

		ahamiyati. Foydali qazilmalar. Gidrosfera. Okean. Dengiz. Daryo. Suv omborlari. Ko'llar. Yer osti suvlari. Orol. Yamir orol. Botqoqliklar. Atmosfera. Troposfera. Stratosfera. Mezosfera. Termosfera. Yekzosfera. Tropopauza. Stratopauza. Mezopauza. Termopauza. Quyosh radiatsiyasi. Quyosh doimiyligi. Ob-havo. Yog'inlar: qor, yomg'ir, do'l, tuman, qirov, shudringlarning hosil bo'lishi. Biosfera. Biosfera chegaralari. V.I.Vernadskiy ta'limoti. Biosferada moddalar aylanishi.		
--	--	--	--	--

#### **Tiriklik belgilari**

18	1	Hujayraning tuzilishi, oziqlanishi, rivojlanishi va ko'payishi.		
----	---	---	--	--

#### **O'simliklar olamining xilma-xilligi va uning tabiatda tutgan o'rni**

19	1	Floraning inson hayotidagi ahamiyati. O'simliklarning organlari. Generativ va vegetativ a'zolar. Gulli o'simliklarning ko'payishi. Ularning turlari, oilalari, xususiyatlari. Bir urug'pallali va ikki urug'pallali o'simliklar va ularning tuzilishi, farqlari. O'simliklarning hayotiy shakllari. Tuban o'simliklar. Yuksak o'simliklar. O'simliklar sistematikasi. O'zbekistonning o'simlik qoplamasi. Cho'l, o'rmon, to'qay, tog' o'simliklari.		
----	---	---	--	--

#### **Hayvonot olamining xilma-hilligi va uning tabiatda tutgan o'rni**

20	1	Hayvonot olamining xilma-xilligi, tuzilishi. Bir hujayrali organizmlar. Hayvonot olamida sinf, tur va avlod. Baliqlar. Sudralib yuruvchilar. Qushlar. Sut emizuvchilar. Hayvonlarning hulq-atvori, ko'payishi, rivojlanishi, geografik tarqalishi va kelib chiqishini, shuningdek, ularning tabiatdagi va odam hayotidagi ahamiyatini o'rganadi.		
----	---	--	--	--

#### **Boshlang'ich ta'limda tarbiyaning nazariy asoslari**

21	1	Tarbiya ijtimoiy-tarixiy zarurat sifatida. Milliy tarbiya konsepsiysi. Tarbiya fanining maqsad va vazifalari. Asosiy kategoriyalari. Tarbiya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Tarbiya fanining ilmiy-tadqiqot metodlari. Konsepsiya tushunchasining mazmuni. Milliy tarbiya konsepsiysi. Tarbiya konsepsiyasining tarbiyaviy jarayondagi ahamiyati.		
	2	Milliy urf-odat, qadriyat va an'analar-tarbiya asosi. Tarbiya darslarida milliy qadriyatlar, urf-odat va marosimlarni o'rganish, milliy qadriyatlarning shaxs kamolotiga tasiri.		
22	3	Ta'lim-tarbiya jarayonida oila, mahalla va ta'lim muassasasi integratsiyasi. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda "Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi" Konsepsiyasining ahamiyati. Ta'lim muassasasi faoliyatida oila va oila hamkorligi masalalari.		
	4	Tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalar. Juhon tarbiya konsepsiyalari. Juhonning		

	rivojlangan mamlakatlari tarixi, maqsadli, uzlusiz ma‘naviy tarbiyaning tutgan o‘rni. Yaponiyada fuqaroni tarbiyalash – “axloqiy tarbiya” tizimi “xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim”, “davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat”, “fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash” tizimi. Xitoyda Konfutsiylik axloqining besh asosiy ustuni.		
--	---	--	--

### Boshlang‘ich ta’limda tarbiya jarayonining mazmuni va mohiyati

23	1	Boshlang‘ich ta’limda tarbiya jarayonining mazmuni va mohiyati. “Tarbiya” tushunchasining mohiyati. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya nazariyasining tarkibiy qismlari. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari. Tarbiya maqsadining jamiyat ijtimoiy ehtiyoji asosida belgilanishi. Komil inson, malakali mutaxassisni tarbiyalash – bosh ijtimoiy maqsad. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.		
	2	Tarbiyaning umumiy metodlari, shakllari va vositalari. Tarbiya shakllari (turlari) haqida tushuncha. Tarbiyaning umumiy metodlari va vositalari. Boshlang‘ich sinflarda tarbiya metodlari, vositalari tasnifi va ularni tanlab olish shartlari.		

### Boshlang‘ich sinflarda “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish

24	1	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muvaffaqiyatga erishishga intilish motivi shaxsning ustuvor xususiyati sifatida (1-4 sinf tarbiya darsi). Bolaning o‘z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish va o‘z-o‘zini baholashga qo‘yayotgan talablar. O‘z qobiliyatlarini bilishga va mehnatsevarlikka o‘rgatish. Ijtimoiy motivlarning paydo bo‘lishi. O‘z xalqining va boshqa xalqlarning an’analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo‘lishi.		
	2	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. (1-4 sinf tarbiya darsi) O‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda ta’limning metod, shakl va vositalardan foydalanish. Pedagogik diagnostika va korreksion faoliyat mazmuni. Pedagogik diagnostika metodlari.		
	3	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijobiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmi (1-4-sinf tarbiya darsi). Shaxsda ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. Vatanga sadoqat, tadbirkorlik,		

		irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash kabi fazilatlarni shakllantirish mazmuni. Innovatsion tarbiya texnologiyalarining o'quvchilarning axloqiy sifat va fazilatlarini shakllantirishda foydalanish.			
	5	Tarbiya darslarida o'quvchini o'z ustida ishlash jarayoni (1-4-sinf tarbiya darsi). O'quvchida ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. O'quvchilarda jismoniy va intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish va kreativ sifatlarini namoyon qilishning mazmuni. Vatan oldidagi huquq, burch va majburiyatlarini anglash.			
<b>Tarbiya darslarini tashkil etishda innovatsion yondashuvlar</b>					
25	1	Tarbiya darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish. Innovatsion ta'lif muhitida tarbiya darslarini tashkil etishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, mediat-a'limni yo'lga qo'yish. Tarbiyaviy texnologiya turlari va ularning mazmuni. Tarbiya darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish. 1-4 sinf tarbiya darsligini taxlil qilish.			
	2	Tarbiya darslarini tashkil etishda tarbiyaviy treninglar. Trening tushunchasi. Tarbiyalanuvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda tarbiya treninglarining ahamiyati. Tarbiyaviy trening turlari, ularning mazmun va mohiyati.			
		<b>Jami</b>	<b>10</b>	<b>20</b>	<b>10</b>

**6. Ajratilgan vaqt (javoblar varaqasini to'ldirish bilan birga):**

- 40 ta test topshirig'i uchun 80 daqiqa.

**7. Test topshiruvchilar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risidagi" qonuni –T.: 2020.

2. O'zbek maktablarida ona tili o'qitish konsepsiysi. –T.: O'zPFITI, 1993.–

21b.

3. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lif standarti va o'quv dasturi. (Ona tili. O'qish. Matematika. Atrofimizdag'i olam. Tabiatshunoslik (1-4-sinflar)) –T.: RTM. 2010. – 144b. 10-17-betlar

4. Umumiy o'rta ta'lifning boshlang'ich ta'lifdan davlat ta'lif standarti va o'quv dasturi. – T.: RTM, 2017. – 215 b.

5. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh., Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2009, 352 b.
6. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh., Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: Bayoz, 2022, 304 b.
7. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D., Ona tili 4-sinf uchun darslik, - T.: O'qituvchi, 2020, 192 b.
8. Matchonov S., G'ulomova X., Suyunov M., Boqiyeva H. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. – T.: Yangiyul poligraph service, 2008. – 224 b.
9. MatchonovS., va boshq. "O'qish kitobi" 4-sinflar uchun darslik uchun darslik, "Yangiyo'l poligraf servis" 2020
10. Safarova R., va boshq. "Alifbe" o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2021. -96 b.
11. Azimova I. va boshq, "Ona tili va o'qish savodxonligi" 1-2-qismlar, 1-sinflar uchun darslik, -T.: Respublika ta'lim markazi, 2021.
12. Azimova I. va boshq, "Ona tili va o'qish savodxonligi" 1-2-qismlar, 2-sinflar uchun darslik, -T.: Respublika ta'lim markazi, 2021.
13. Djumayev M. Matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik) Toshkent. "Bayoz", 2022-yil.
14. Jumayev M. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (OO'Y uchun o'quv qo'llanma ) Toshkent. "O'qituvchi", 2004 yil.
15. Jumayev M. Matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik) Toshkent. "Turon-Iqbol", 2016 yil. 426 b.
16. Jumayev M.E, Matematika o'qitish metodikasi (KHK uchun ) Toshkent. "Ilm Ziyo" 2011 yil.
17. Jumayev M., Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (OO'Yu uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiya", 2005 yil.
18. PISA, TIMSS Assessment Frameworks and Specifications 2003. 2nd Edition. IEA, Boston College ISC, 2003.
19. TIMSS Monograph No.4. Assessing Mathematics and Science Literacy. General editor, David F. Robitaille. Pacific Educational Press, Vancouver, Canada, 1998.
20. Sharipova D., Xodieva D., Shirinov Sh. "Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi". –T.: darslik. 2018.
21. Salayeva M.S." Umumiy pedagogika".darslik. 2021.
22. Xodjayev B.X. "Umumiy pedagogika " darslik.-T.:1997.
23. Ismatova Nargiza va boshalar. Tarbiya 1,2, 3,4 2020.
24. B.S.Abdullayeva, M.B.Tursunova, M.X.Haydarova "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" –T.darslik 2022.
25. Dexkanova M.U. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" darslik . 2019

### **Axborot manbaalari**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

4. www.edu.uz
5. tdpu-INTRANET. Ped
6. <http://www.Norma.uz>. O‘zbekiston respublikasi qonun hujjatlar to‘plami sayti.
7. <http://www.pedagog.uz>.
8. <http://www.ziyonet.uz>. O‘zbekiston respublikasi talim sayti.
9. <http://www.uzedu.uz>, e-mail: [info@uzedu.uz](mailto:info@uzedu.uz)
10. <http://window.edu.ru/window/>[www.astronet.ru](http://www.astronet.ru)
11. <http://dl.nw.ru/theories/technologies>

*\*Izoh: Ushbu spetsifikatsiya O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi bilan kelishilgan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Ilmiy-metodik kengashning 2022-yil 30-noyabrdagi 6-son yig‘ilishi qarori bilan ma’qullangan.*